

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
O'quv-uslubiy bo'yicha prorektor
R.G. Jumayev

1030
10 yanvar 2025 yil



«KELISHILDI»
TARIX VA ARXEOLGIYA
Fakulteti
dekan B.B. Namozov
2025 yil



«KELISHILDI»

O'quv-uslubiy bo'yicha prorektor
S.S. Davlatov

1030
2025 yil

60220400 – Arxeologiya bakalavriat yo'nalishi ixtisoslik fanlardan
Yakuniy davlat Attestatsiyasi sinovlari bo'yicha fanlar

DASTURI

Ixtisoslik fanlari:

- 2.01 - "Inson evalutsiyasi va old tarix"
- 2.03 - "O'zbekiston tarixi"
- 2.09 - "O'rta Osiyo arxeologiyasi"
- 2.10 - "Jahon arxeologiyasi"

ANNOTATSIV'A

Mazkur Dasturda Davlat ta'lim standartlarining ta'lim soxalari bo'yicha ishlab chiqilishi o'quv fanlarini variativ tanlash asosida o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasini, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib berishi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish amoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va fanlararo aloqasini ta'minlanishi ko'rsatilgan.

Mazkur Dasturda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turishi, buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi haqida ta'kidlangan.

Ushbu Dastur 60220400 – Arxeologiya yo'nalishi ma'laka talablari asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Temirov F.U.

BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi"

Ochilov A.T.

BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi"

Qurbanov B.G.

BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Niyazova M.I.

BuxDU "Buxoro tarixi" kafedrasi dosenti,

Shukurilloev Y.A.

Buxoro muhadislik texnologiyasi instituti "Ji'moiy fanlar" kafedrasi dosenti, tarix fanlari nomzodi

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi "Arxeologiya Buxoro tarixi" kafedralarining 2025 yil 11.01 daqi 2-soni yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Tarix va yuridik fakulteti kengashining 2025 yil 14.01 daqi 5-soni yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqqa tavsiya etilgan.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2025 yil 31.01 daqi 6-soni yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi 60220400 – Arxeologiya yo'nalishi bitiruvchilarining "Arxeologiya" fanlari bo'yicha egallagan bilim va malakalarini baholash uchun tuzilgan. Mazkur dastur 1-4 kurslarda "Arxeologiya", "O'rta Osiyo arxeologiyasi" va "Jahon arxeologiyasi" fanlarining eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lni, ji'moiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish, mamlakatimizning demokratlashirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ji'moiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda fanning rivojlanish qonuniyatlarini va tamoyillari, fanning tarkibi va tuzilishi, uni tashkil qilish va boshqarish, fanning tasnifi kabi masalalar ahamiyati ochib berilib, talabalarining nazariy va amaliy masalalari to'g'risida nazariy bilimlarni shakllantirish va amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat hamda tarixchilarni zamonaviy fanning muammolarini yechuvchi yetuk tarixchilmuaxassisi tayyorlashdagi o'rni kabi masalalarni gamraytdi.

Dasturning asosiy qismida fanlarning predmeti va bilish usullari, ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari, ji'moiy-iqtisodiy jarayonlarni tizimli o'rganishda "Arxeologiya"ning qiziqarli va murakkab jarayonlarda fanning ji'moiy fanlar tizimida tutgan o'rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati. Fanning uslubiy, ilmiy-nazariy, g'oyaviy va falsafiy asoslari. O'rta Osiyo arxeologiyasining ilmiy-uslubiy tamoyillari hamda dolzarb masalalari. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to'g'risidagi nazariyalar. Manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari. Jahon arxeologiyasi fan sifatida. Jahon arxeologiya fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Jahon arxeologiyasini o'rganishning ahamiyati. Jahon arxeologiyasi fani manbalari. Yevropada arxeologiya fanning shakllanishi. Daslabki arxeologiya tadqiqotlari. Arxeologiya tadqiqot ishlari ko'lamining kengayishi. Arxeologiya fani rivojining yangi bosqichi.

1.1. O'quv fanining maqsad va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – Inson evolyutsiyasi va old tarix fanning predmeti va vazifalari to'g'risida talabalarga umumiy tushuncha berish. Antropologik, arxeologik manbalar, yodgorliklar, antropogenez nazariyalarini o'rganishda ilmiy jihatdan yondashish. Antropologik davrlashtirish va xronologiya, antropogenez fanning rivojlanish tarixi, tadqiqot ko'lamining o'sishi, uning bosqichlari, antropogenezning zamonaviy bosqichiga oid bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga Inson evolyutsiyasi va old tarix fanining umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, odanning keyingi tarixiy rivojlanish bosqichida ong, nutq paydo bo'lishi bilan fan, texnika, madaniyat, axborotlar uzlashtirish usullarini tabiiy tanlanish nazoratidan chikishga, jamiyatga bog'lik bo'lishiga olib kelgan xohisalar haqida chuqur bilim berishva o'rgatishdan iborat.

“Inson evolyutsiyasi va old tarix” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Inson evolyutsiyasi va old tarix kursining maqsad va vazifalari, talaba yoshlarda antropogenez fanining insoniyat tarixining qadimgi davri hamda odan evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlarini talabalarga tushuntirish, ularda evolyusion bosqichlarni tahlil va tadqiq etishni, foydalanishni bilishi kerak;

- Talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

“Inson evolyutsiyasi va old tarix” fani umumkasbiy fan hisoblanib, 1-2 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o'quv rejasida rejalashtirilgan Geoarxeologiya, Arxeologiyaga kirish fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishdan maqsad - tarixning davlat va jamiyat taraqqiyoti natijasi ekanligi, jamiyat rivojlanishida davlatchilikning muhim voqea hisoblanishi, tarixning keyingi taraqqiyoti bosqichida fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishi bilan fan, texnika, madaniyat, axborotlar o'zlashtira borish, ularni jamiyatga bog'lik bo'lgan hodisalarni ko'rsatishdir

O'zbekiston tarixi fanining vazifasi - jamiyat va davlatchilik taraqqiyotidagi uyg'unlik farqlarini aytirish, tarix fanidagi yangi nazariyalarni tahlil etish, tarixning harakatlantiruvchi omillarini talabalarga ko'rsatib berish, tarix fanining asosiy yo'nalishlarini tahlil va tadqiq qilish malakasini hosil qilish, davlat va jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish omillarini tahlil qilishda tarix fanining o'rinni tushuntirishdan iborat.

Fanni o'qitishdan maqsad - O'ra Osiyo arxeologiyasi to'g'risida talabalarda xolisona ilmiy dunyoqarash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - O'ra Osiyoning eng qadimgi, qadimgi va o'ra asrlar davri moddiy va ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, etno-madaniy jarayonlari va g'oyaviy qarashlari masalalarini o'rgatishdan iborat.

«O'ra Osiyo arxeologiyasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- O'ra Osiyo arxeologiyasi fanining maqsad va vazifalari, moddiy va ma'naviy madaniyat, xo'jalik xususiyatlar, etno-madaniy jarayonlar, g'oyaviy qarashlar masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni bilishi kerak;

- talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. Moddiy manbalarni va ilmiy adabiyotlar ma'lumotlarni, mustaqil tahlil qilish va tadqiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- muzey ekspozitsiyalari, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.

“O'ra Osiyo arxeologiyasi” fani umumkasbiy fan hisoblanib 2,3,4,5 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o'quv rejasida rejalashtirilgan Mutaxassislikga kirish, Geoarxeologiya, Inson evolyutsiyasi va old tarix fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Fanni o'qitishdan maqsad - Jahon arxeologiyasi to'g'risida talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarash, ko'nikma va malakasini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - Jahon arxeologiyasining moddiy va ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, etno-madaniy jarayonlari va g'oyaviy qarashlari masalalarini o'rgatishdan iborat.

«Jahon arxeologiyasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Jahon arxeologiyasi fanining maqsad va vazifalari, dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jalik xususiyatlar masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni bilishi kerak;

- talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. internet ma'lumotlarni, dunyo arxeologiyasiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- dunyo mamlakatlari arxeologiya topilmalari, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.

“Jahon arxeologiyasi” fani umumkasbiy fan hisoblanib, 2,3,4,5,6 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o'quv rejasida rejalashtirilgan “Arxeologiyaga kirish”, “Inson evolyutsiyasi va old tarix” fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

BAHOLASH MEZONI

Ixtisoslik fanlaridan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma usulda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, pedagogika nazariyasi va tarixi, umumiy psixologiyaga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish kursatkichi 22,5-25 ball oraligida baholanadi. Savolga to'g'ri javob yozilsa, ilmiy-amaliy jihatdan asosli mantiqiy yoritilgan bo'lsa, biroq bugungi ta'lim va tarbiya jarayoni yangilanishlar amaliyoti bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l quyilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 18-22 ball oraligida baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob yozilsa, biroq quyilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa, uzlashtirish kursori 15-17,5 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri yozilsa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob yozilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-14,5 ball oralig'ida baholanadi.

T.r	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi	Xususiy ball
	22,5-25	A'lo (86-100)	Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, siyosiy islohotlar va jarayonlarning mazmun-moxiyati to'liq ochib berilgan. O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tatbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi. Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilingan. Imlo va stilistik xatolarga yo'l quyilmagan. Javob to'g'ri yozilgan, unda siyosiy bilimlar asosli yoritilgan, ammo sana va sonlarda chalkashliklarga yo'l quyilgan.	8-8,5 7-7,5 5-6,5 1,5-2,5
	22-18	Yaxshi (71-85)	Javobda talabning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi. Ijodiy yondashuv mavjud. Talaba muammoni tahlil qilish qobiliyati ega. Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas. Savol buyicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob yozilmagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan ayran so'zma-so'z ko'chirilgan	6-7 5,5-6 3,5-4 3-4
	17,5-15	Qoniqar li (55-70)		5-6 4-4,5 3-4 2-3
	0-14,5 gacha	Qoniqar siz (0-54)		0-14,5

ASOSIY NAZARIY QISM

Kirish

5120400 – Arxeologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malaka (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi «3. Ixtisoslik fanlari» dan yozma ish topshirishi nazarda tutilgan.

“INSON EVOLYUSIYASI VA OLD TARIX” FANI DASTURINING

ASOSIY NAZARIY QISMI

Fanning predmeti, maqsadi va vazifasi

Inson evolyusiyasi va old tarix fan sifatida. Inson evolyusiyasi va old tarix fanining predmeti va vazifalari. Antropologik davrlashtirish va xronologiya. Inson evolyusiyasi va old tarix fanining rivojlanish tarixi. Tadqiqot ko'lamining o'sishi, uning bosqichlari. Inson evolyusiyasi va old tarix faning o'quv rejasidagi fanlar bilan aloqadorligi.

Odam va uning ajdodlarining hayvonot dunyosidagi o'rni

Primatlarning asosiy evolyusion bosqichlari. Xominoidlar oilasining vujudga kelishi. Odanning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishining biologik omillari. Zamonaviy maymunlar va xominidlar guruhining ajralish sabablari. Antropogenezning simial nazariyasi. Darvinning evolyusion nazariyasi. Davrlashtirish va xronologiya. O'rganilish tarixi.

Gominidlar evolyusiyasining ilk bosqichi. Avstrolopiteklar.

Avstrolopiteklar turmush tarzi va mehnat faoliyati. Markaziy va Janubiy Afrikadan topilgan paleoantropologik topilmalar. Avstrolopiteklar to'g'risidagi yangi antropogenez nazariyalari. Ilk avstrolopiteklar. Rivojlangan avstrolopiteklar. Yirik avstrolopiteklar. Avtrolopiteklar evolyusiyasiga ta'sir qilgan omillar. SHarqiy Afrikadagi paleoantropologik topilmalar. Davrlashtirish va xronologiya. O'rganilish tarixi.

Eng qadimgi odamlarning vujudga kelishi (Homo).

Afrika va Evrosiyo qit'alaridan topilgan paleoantropologik topilmalar. So'nggi yillarda talqin qilinayotgan yangi antropogenez nazariyalari. Eng qadimgi odamlarning mehnat faoliyati va turmush tarzi. Olduvay madaniyati. Davrlashtirish va xronologiya.

O'rganilish tarixi.

Zamonaviy qiyofadagi odamning vujudga kelishi va antropogenez jarayonining tugallanishi (Homo sapiens).

Pleystotsen davrining preadatsiyasi va umumiy tavsifi. Afrika va Evrosiyopadan topilgan antropologik topilmalarning tahlili. Homo sapiens ning vujudga kelgan joyi va vaqti. Mono va politsentrizm nazariyalari. Teshiktosh topilgan antropologik topilmalar. Iqlarning vujudga kelishi. Davrlashtirish va xronologiya. O'rganilish tarixi.

Odamning vujudga kelishining ijtimoiy aspektlari.

Sotsiogenezning ilk bosqichi. Zamonaviy odam va evolyusiya. Zamonaviy antropologik tiplarning tarqalishi. Migratsiya va odamlar migratsiyalari.

Ibtidoiy tarixning manbaxunosligi va tarixnavisligi

Ibtidoiy tarixning manbaxunosligi haqida umumiy ma'lumot. Ibtidoiy oldtarixning ilmiy manbalari. Ibtidoiy oldtarixning tarixiy manbalari va ularning xususiyatlari.

Ilk urug' jamoasi

Urug' jamoa tuzumining vujudga kelishi. Ilk urug' jamoasi va uning xususiyatlari. Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va aholining er shari bo'ylab tarqalishi. YAngi urug' jamoalari ko'rinishlari. Qarindoshlik aloqalari (filitsiya). Ayollarning jamiyat hayotida tutgan o'rining o'sishi.

Oila va nikoh

Oila va nikoh. Madaniyat. Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo'linishi. Erkaklar uyi. Mulkning jinsga qarab bo'linishi. Jinsga qarab mehnat taqsimotining amalga oshirilishi. Nikoh va oila. Monogam oila. Nikoh puli-qalin. Orotkuzen. Nikoh odatlari. Ovunkular, kuvada atamasi va urug' tashkilotlari.

Ma'naviy madaniyat

Ilk urug' jamoasining ma'naviy madaniyati. Neandertal odamni o'rganishda anatomic yondashish. Arxeologik va etnografik yondashish. Neandertal odamning qabrlari. Dafn etish tartiblari. Sig'inish etiqodining vujudga kelishi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari:

Asosiy adabiyotlar

1. Roger Lewin and Robert A. Evolution the human story, Principles of Human Evolution. Great Britain, 2011, oley, 2nd ed., Blackwell, 2004
2. Coward F, Hosfield R, Pope M. Settlement, Society and Cognition in Human Evolution. Cambridge: Cambridge University Press. 2015

3. Renfrew C, Bahn P. The Cambridge World Prehistory. . Cambridge: Cambridge University Press. 2014
4. Burkitt M. C. Prehistory. Cambridge: Cambridge University Press. 2012

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyov SH.M. Tankidiy taxlil, kat'iy tartib-ini'zom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik koidasi bo'lishi kerak. O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Markamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil ishtiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyov SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston" 2017.
3. Mirziyov SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017.
4. Mirziyov SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barmo etamiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017.
5. Alekseev V.P., Pershits A.I. Istoriya pervobyitnogo obuestva, -M, "Astej" 2007.
6. Alekseev V.P., Pershits A.I. Istoriya pervobyitnogo obuestva. M., Vysshaya shkola, 2001g.
7. Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi. (Ma'ruza matni). -T. 2005.
8. Bobobekov A.D. Ibtidoiy jamiyat oldtarix. (O'quv-uslubiy majmua). -T. 2012.

Internet ma'lumotlari.

1. <http://bookz.com.ua>
2. <http://lib.com.ua>
3. <http://www.computerbooks.ru>

"O'ZBEKISTON TARIXI" FANI DASTURLARINING ASOSIY NAZARIY QISMI

Kirish. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, manba va asoslari.

O'zbekiston tarixi fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati. Fanning uslubiy, ilmiy-nazariy, g'oyaviy va falsafiy asoslari. O'zbekiston tarixining ilmiy-uslubiy tamoyillari hamda dolzarb masalalari. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to'g'risidagi nazariyalar.

Manbaxunoslik va tarixshunoslik masalari.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlaridagi tarix, tarix fani va uning metodologiyasiga oid ilmiy-nazariy masalalar, tamoyil va yangicha yondoshuvlar. Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy merosga munosabat zamonaviy mutammolar va ayrim yondashuvlar.

Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning paydo bo'lishi to'g'risidagi

nazariyalar. Antropogenez jarayoni. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi. Mezolit – oʻrta tosh davri tarixi. Neolit – yangi tosh davri tarixi. Eneolit – mis-tosh davri tarixi.

Oʻzbekiston tarixining eng qadimgi davri.

Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning paydo boʻlishi toʻgʻrisidagi nazariyalar. Antropogenez jarayoni. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi. Mezolit – oʻrta tosh davri tarixi. Neolit – yangi tosh davri tarixi. Eneolit – mis-tosh davri tarixi.

Bronza davri tarixi

Bronza davri va bronza qurullarning xususiyati. Ziroatchilik va chorvadorlar madaniyatlarini doirasining kengayib borishi. Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari. Aholi va etnik jarayonlar.

Oʻzbekiston davlatчилиgining shakllanishi asoslari

Ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirishi. Boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo boʻlishining ijtimoiy, iqtisodiy, vasiyosiy asoslari. Davlatchilik kelib chiqishiga doir nazariyalar. Davlat turlari va shakllari. Boshqaruv tizimi.

“Avesto” va zardushitilik

“Avesto”ning tarixiy manba sifatidagi oʻrni. “Avesto” tili. “Avesto” va zaratushtra. “Avesto”da geografik-hududiy nomlar. Ijtimoiy-iqtisodiy mahmudlar va siyosiy tarix. Diniy falsafa va dafn etish marosimlari. Axloqiy va huquqiy qoidalar, jinoyat va jazo turlari.

Qadimgi davlatlar tarixi

Qadimgi fors bitiklari va ilk yunon manbalarida tarixiy – madaniy viloyatlar va qadimgi davlatlar. Fargʻona va Choch. Qadimgi Baqtriya. Soʻgʻdiyona. Qadimgi Xorazm. Sak-massagetlar. Ular oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar.

Oʻrta Osiyo Ahamoniylar davlatlarida (mil.avv. VI-IV asrlar)

Yozma manbalar. Ahamoniylar saltanatining tashkil topishi va Oʻrta Osiyoni boshib olishi. Kir II va Doro I ning boshqaruv tizimi. Toʻmaris va Shiroqning jassoratlari. Frada qoʻzgʻoloni. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Satrapliklardagi boshqaruv tizimi. Ahamoniylar davrida xoʻjalik, shaharlar, humarmandchilik va savdo. Madaniy aloqalar. Madaniyat vadini.

Makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va

Soʻgʻdiyona yurishlari

Yozma manbalar. Arrian, Kursiy Ruf hikoyalari. Strabon “Geografiyasi” maʼlumotlari. Siyosiy voqealar. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari. Aleksandr va Spitaman. Yunon-makedonlarga qarshi kurash. Tarixiy geografiya.

Oʻzbekistonning antik davr davlatчилиgi. Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari

Makedoniyalik Aleksandrning vafoti va saltanatning parchalanishi. Elin davlatlarining tashkil topishi. Salavkiylar davlati. Salavka va Antiox davrida xoʻjalik va madaniy hayot. Salavkiylar davlatining kuchsizlanishi va parchalanishi. Salavkiylar davrida elin madaniyatining tarqalishi va aralash madaniyatining shakllanishi. Yunon-Baqtriya podshohligi, hududi va chegaralari. Elin madaniyatining xususiyatlari.

Xorazm, Qangʻ, Davan, Yuyechji-Kushon va Kushon davlatlari

Xorazm davlati: shaharsozlik va meʼmorchilik. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. Tasviriy sanʼat, yozuv va din. Qangʻ davlati: manbalar, tashkil topishi va chegaralari. Ijtimoiy tuzum, xoʻjaligi va shaharlari. Davan davlati: manbalar, chegaralari. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Davan – Xitoy munosabatlari.

Yuyechji-Kushon va Kushon davlati. Kushon saltanatining tashkil topishi. Kanishka hukmronligi. Kushon, Xitoy, Rim munosabatlari. Kushonlar davri madaniyati. Kushon yozuvi. Kushonlar davri Shimoliy Baqtriya shaharlari.

Xioniyalar, Kidariylar, Eftaliylar davlati.

Oʻrta Osiyoda “dehqonlar” tabaqasining vujudga kelishi. Kidariylar, kashovarlar, chokarlar.

IV asrning 70-yillarida Xioniyalar davlatining tashkil topishi. Xioniyalar va Eron soseniyalari davlati oʻrtasidagi munosabatlari. Oʻrta Osiyoga toʻxtar kidariylarning (V asrning 20-yillarida) kirib kelishi va oʻz hukmronligini oʻrnatishi.

V asrning oʻrtalarida Eftaliylarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishi. V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlarida Eftaliylar davlatining tashkil topishi. Hududi. Eron soseniyalari ustidan gʻalabasi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Turk xoqonligi davrida Oʻrta Osiyo.

Turk xoqonligining tashkil topishi. Turk xoqonligining Eron va Vizantiya bilan munosabatlari. Turk xoqonligining boshqaruv tartibi. Sharqiy turk davlati va Turk xoqonligi va Xitoy oʻrtasida iqtisodiy-savdo aloqalari. Ijtimoiy hayot. Gʻarbiy Buxorodagi Abriy boshchiligidagi qoʻzgʻolon.

Samarqand ixshidlarining siyosiy nuftuzi. Maʼmuriy bitiklar. Samarqand (Kan), Buxoro, Maymurgʻ, Istixon, Kushoniya, Omul, Andkoy, Kesh, Naxshab ibodatxonasi. Soʻgʻdning xoʻjaligi va ijtimoiy hayoti. Soʻgʻd ixshidlarining ajdodlari Fargʻona, Xorazm va Chochning mustaqil hokimliklari. Fargʻona afshinlari.

Xorazmning afriqiy podshohlari. Xorazmning Sharqiy Evropa bilan savdo aloqalari. Choch tudurlari va Ilqo dehqonlari. Choch va Ilqo qonligi xoʻjaligi va madaniy hayoti. Qazilma boyliklari. Savdo aloqalari.

Arab xalifaligi davrida Movarunnahr va Xuroson.

Umiy manbalar va tarixshunoslik. VI-VII asr boshlarida Arabiston yarim oroli tomonidan fath etilishi. Movarunnahr va Xuroson arab xalifaligi hukmronligi ostida. Arab xalifaligi istilosining oqibatlari. Islom dini va uning O'rtasiyoga targ'atishi. Ma'naviy madaniyatdagi o'zgarishlar. Arab xalifaligining mustamlakachilik, soliqsiyosati.

Arablar bosqinidan so'ng Movarunnahr va Xurosonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Movarunnahr va Xurosonda arablar bosqiniga qarshi xalq ozodlik harakatlari. Muslim qo'zg'aloni. Sharik ibn Shayx ul-Mahriy qo'zg'aloni. Muganna qo'zg'aloni. Movarunnahr va Xurosonda arab xalifaligi hukmronligiga qarshi xalq ozodlik harakatlarning oqibatlari.

Movarunnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi.

Tohiriyalar va Safforiylar davlati.

Ma'vazning manbalari. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. IX asming birinchi choragida xalifalikdagi ijtimoiy siyosiy ahvol. Tohir ibn Husayn va tohiriyalar davlati. Tohiriyalar davrida ijtimoiy hayot. Tohiriyalarning ma'muriy boshqaruv tizimi. Tohiriyalar davlatining mag'lubiyatga uchrashi. Safforiylar davlatining tashkil topishi. Yoqub ibn Lays. Amr ibn Lays. Safforiylar davrida ijtimoiy iqtisodiy hayot.

Somoniylar davlati

Manbalar. Somonxudodlar. Asad va uning o'g'illari. IX asming birinchi yarmida turli o'g'uz qabilalari. Nasr ibn Ahmad (865-892) davrida Somoniylar hokimiyatining Aboosbiylar xonligi tomonidan rasman tan olinishi. Ismoil Somoniy va uning islohotlari. Markazlashgan davlat boshqaruvining tashkil topishi. Harbiy islohot. Somoniylar davrida Movarunnahrda ijtimoiy, iqtisodiy hayot. Somoniylar hukmronligining tugatilishi.

Qoraxoniylar davlati

Ma'vazning tarixshunosligi. Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi to'g'ridagi yangicha qarashlar. VIII asr boshlarida Ertisuv, Sharqiy Turkiston va Qashqarda yashovchi turkiy qabilalar (chig'it, ya'mo, o'g'iz va boshqalar). Qoraxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi. Qoraxoniylarning Movarunnahrda hujumlari. Movarunnahrda qoraxoniylar hukmronligining o'rnatilishi. Sharqiy va G'arbiy qoraxoniylar. Qoraxoniylarning hujumlari (1137-1141). Qoraxoniylar-ning davlat boshqaruv. Qoraxoniylar davrida ijtimoiy hayot.

G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlari.

Manbalar. G'aznaviylar davlatining tashkil topishi. Alp Tegin. Sabuq tegin. Mahmud G'aznaviy (998-1030) va uning somoniylar hamda qoraxoniylar bilan munosabati. Mahmud G'aznaviyning harbiy yurishlari. X-XI asrlarda Janubiy va

Shimoliy Xorazm. Dardanakon jangi va g'aznaviylarning mag'lubiyati. G'aznaviylarning davlat boshqaruv tizimi.

Sirdaryo etaklarida O'g'uz davlatining tashkil topishi. Saljuqiylarning Mas'udga qarshi olib borgan kurashi. Sulton Sanjar davrida (1118-1157) saljuqiylar davlatining gullab yashnashi. Qoraxiylarning hujumi; Qatvon cho'lidagi jang (1141) va saljuqiylarning mag'lubiyati. Saljuqiylar davlat boshqaruv tizimi. G'aznaviylar va Saljo'qiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Xorazmshoh - Anushteginiylar davlati

Anushteginlar hokimiyatining vujudga kelishi. Qutbiddin Muhammad (1097-1127). Aloudin Muhammad Osiz (1127-1156) Xorazmshoh el-Arslon (1156-1172). Aloudin Takesh va uning Xorazm davlati yuksalishdagi tutgan o'rni. Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220). Xorazmshohlar davlatining gullab yashnashi. Qoraxiylar bilan kurash. Xorazmning Movarunnahrda ta'sir doirasining kuchayishi. Buxoroda Malik Sanjar boshchiligidagi qo'zg'olon (1206-1207). 1212 yilgi Samarqand qo'zg'aloni. Xorazmshohlar davlatining inqirozi.

Xorazmshohlar davlatining tuzilishi. Harbiy tizimi. Majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimi. Qo'shinning tartibi. Qumondonlik. Davlat va saroydagi asosiy lavozimlar. Xorazmshohning vazifalari. Vazirlik lavozimi. Vakildorlik kengashining tuzilishi. Saroy mansablari va unvonlari(hojitib ul-kabir, ustozdor, amir-oxur, amir-shikor, tashtdor, sharobdor, qissador, choshnigir, davoldor, farosh, ami al-alam va boshq.). Xorazmshohlar davlatida shaharlar. Ichki va tashqi savdo. Tovar-pul munosabatlari. Tanga zabt etish ishlari. Qishloq xo'jaligi va er-suv munosabatlari.

O'rtasiy xalqlari tarixida IX-XII asrlarda yuz bergan Uyg'onish davri.

Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishini ta'minlagan shart-sharoitlar. XI-XII asrlarda fan va madaniyatning yuksak cho'qqiga ko'tarilishi. Buyuk Ipak yo'lining fan va madaniyat ravnaqidagi tutgan o'rni. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi va uning fan rivojidadagi ahamiyati. Riyoziyot, falakiyot, kimyo, tibbiyot, jug'rofiya va ijtimoiy fanlarning rivoji. Buyuk qomusiy allomalar. Fanlarni grammatika. Hadis va fiqh ilmi taraqqiyoti.

Buyuk Ipak yo'li - mulogot va hamkorlik yo'li.

Eng qadimgi aloqa yo'llari. Lojard yo'li. Transmintagaviy va mintagaviy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati. Savdo yo'lidagi joylashgan shaharlar taraqqiyoti. O'rtasiy davri savdo-iqtisodiy yo'llar. Buyuk Ipak yo'li va hozirgizamon.

Etnogenez va etnik tarix masalalari.

Etnogenez va etnik jarayonlarning xususiyatlari. Qadimgi miqrasiyalar va etnomadaniy jarayonlar. O'zbek xalqining shakllanish masalasi.

Movaronnahr va Xurosonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi.

XII-XIII asming boshlarida Mo'g'uliston'dagi qabilalar va birlashgan mo'g'ul davlatining tashkil topishi (1206). Davlatning ichki tuzilishi. Chingizxonning harbiy islohat va bosqinchilik yurishlari. Chingizxonning Movaronnahrda hujumi. Buxoro va Temurning bosib olinishi (1220). Samarqand jangi (1220) va Xorazmshoh Muhammadning Tabaristonga qochishi. Sig'noq, O'zgan, Jandning olinishi (1220). Xo'jand mudofasi va Temur Malikning jasoratlari. Gurganj mudofasi (Najmiddin Kubo).

Jaloliddin Manguberdi jasoratlari.

Jaloliddin Manguberdi. Jaloliddinning Xurosondagi dastlabki muvaffaqiyatlari. Parvon jangi. Sind jangi. Movaronnahr va Xurosonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi. Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, Gruziyadagi harakatlari.

Xorazmshohlar davlati inqirozi. Xorazmshohlar davlati mag'lubiyatining sabablari.

Movaronnahr Chig'atoy ulusi tarkibida.

Mo'g'ullar isilosining oqibatlari. Chingizxon tomonidan bosib olingan hududlarning o'z o'g'illariga bo'lib berishi. Chig'atoy ulusi va uning boshqaruv tizimi. Chig'atoy ulusida ijtimoiy hayot. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni (1238). Munkaxon (1251-1259) davrida Chig'atoy ulusining tugatilishi. XIII asming 60-yillarida Olg'o'xon tomonidan Chig'atoy ulusining qayta tiklanishi. Mas'udbekning o'ltirgan pul islohati (1271). Kepakxonning ma'muriy va pul islohatlari. Chig'atoy sulolasi hukmronligiga barham berilishi. XIV-XV asming birinchi yarmida madaniy hayot.

Arin Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi.

Arin Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi. Arin Temur zukko, tajribali sarkarda va buyuk davlat arbobi. Arin Temurning jahon tarixida tutgan o'rni. O'zbek davlatchiligi asoschisi sifatida. Temur tuzuklari tarixiy muhim manba.

Amir Temur davlatining tashkil topishi.

Amir Temur davlatining tashkil topishi. Amir Temur davriga oid manba va adabiyotlar. Amir Temurning siyosiy maydonga chiqishi. Amir Temur Movaronnahr hukmdori deb e'lon qilinishi. Markazlashgan Amir Temur saltanatining tashkil topishi. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi.

Amir Temur davrida siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy hayot.

Amir Temur markazlashgan davlat boshqaruv siyosati. Ichki va tashqi siyosat. Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi. Pul va islohatlari. Suyurg'ol tizimi. Er-suv taqsimoti. Harbiy va sud ishlari. Qishloq xo'jaligining ahvoli. Amir Temurning dehqonchilikni tiklash va rivojlantirishdagi ishlari. Sug'orish inshootlarining qurilishi. Soliq tizimi.

Temuriylar davrida Movaronnahr va Xuroson.

Temuriylar davriga oid manba va adabiyotlar. Amir Temur vafotidan so'ng, temuriylar o'rtasidagi taxt uchun kurash va Temur saltanatining parchalanishi. Temuriylar davrida Movaronnahr va Xurosonda siyosiy hayot. Shohruh Mirzoning va Mirzo Ulug'bek davlati siyosiy tarixi. Mirzo Ulug'bening harbiy yurishlari. Mirzo Ulug'bek davrida ichki va tashqi siyosat. Abu Said va uning avlodlari davrida Movaronnahr siyosiy jarayonlar. So'nggi temuriylarning taxt uchun kurashi.

Temuriylar hukmronligi davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Davlatning boshqaruv tizimi. Urvon va mansablar. Ma'muriy hududiy tuzilishi. Aholining turmush tarzi. Qishloq xo'jaligining ahvoli. Soliqlar va soliq tizimi. Sug'orish inshootlarining qurilishi. Ichki va tashqi savdo. Bozorlarning madaniy markazlar sifatidagi ahamiyati. Xalqaro savdo yo'llari. Temuriylar davrida tashqi siyosat masalasi.

Movaronnahrda Shayboniylar sulolasining hukmronligining o'rnatilishi.

Shayboniylar davriga manba va adabiyotlar. Dashi Qipchoq va Movaronnahr munosabatlari. Shayboniyxon tomonidan Movaronnahr va Xurosonni bosib olinishi. Temuriylar - Shayboniylar - Safaviylar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar.

Buxoro xonligining tashkil topishi va siyosiy hayoti.

Ubaydullaxon hukmronligi va Buxoro xonligining tashkil topishi. Abdullaxon II ning hokimiyatga kelishi va Shayboniylar davlatining birlashtirilishi. Movaronnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi. Abdullaxon davrida Buxoro xonligining yukalishi. Ichki va tashqi siyosat. Shayboniylar sulolasining inqirozi.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Shayboniylar davlatining ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruv tizimi. Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi. Mansab va unvonlar. Pul va islohatlari. Suyurg'ol tizimi. Er-suv taqsimoti. Harbiy va sud ishlari. Er egaligi munosabatlari: iqto, suyurg'ol, tanho, jogir. Sug'orish tizimi va suv inshootlari. Soliq tizimi. Tashqi siyosat. Hindiston, Eron, Turkiya va Rossiya bilan munosabatlar.

Buxoro xonligida Asharxoniyalar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi va siyosiy tarixi.

Buxoro xonligida Shayboniylar hukmronligi inqirozining sabablari. Asharxoniyalar sulolasining hokimiyatga kelishi. Xiva xonligining Buxoroga hujumlari. Subxonqulixon davrida Xivaning bo'ysundirilishi. Eron - Buxoro - Hindiston o'rtasidagi siyosiy munosabatlar.

Asharxoniyalar davrida Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Asharxoniyalar davrida davlat boshqaruv va Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi. Ijtimoiy tizimi va harbiy ahvoli. Buxoro xonligining iqtisodiy va harbiy ahvoli. Buxoro xonligining iqtisodiy ahvoli va soliq tizimi. Qishloq xo'jaligi: dehqonchilik va chorvachilik Hunarmandchilik va savdomarkazlari.

Buxoro amirligining tashkil topishi va siyosiy tarixi

Amirlik davriga oid manba va adabiyotlar. Mang'itlarning hokimiyatga kelishi. Muhammad Raximxon davrida Markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlanishi va viloyatlarni bo'ysundirishi. O'zbek urug'lari amirlarining isyon va qo'zg'alomlarning kuchayishi. Shohmurodning hokimiyatga kelishi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Moliya, sud, ma'muriy va harbiy islohatlar. Xiva xonligining Buxoroga hujumlari.

Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Amirlikda davlat boshqaruv tizimi va ma'muriy tuzilishi. Markaziy boshqaruv tizimi. Davlat muassasalari. Mahalliy boshqaruv tizimi: viloyatlar va tumamlar. Diniy mansablar. Harbiy va sud ishlari. Er-suv mulkchiligi: amlok, mulk, vaqf erlari. Soliq va majburiyatlar. Qishloq xo'jaligi: sun'iy sug'orish tizimi, kanallar. Dehqonchilik va chorvachilik.

Qo'qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi (XVIII-XIX asrning birinchi yarmi).

Qo'qon xonligiga oid manba va adabiyotlar. Farg'onada Minglar sulolasining hokimiyatga kelishi (1710). Shohruhbiy va uning vorislari davrida Qo'qon xonligi hududi kengayishi. Norbo'tabek davrida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Iqtisodiy hayotning jonlanishi. Olimxon davrida Qo'qonning siyosiy mavqei kuchayishi. Toshkent bekligining bo'ysundirishi. Rossiya bilan savdo munosabatlari o'rnatilishi. Xalq qo'zg'oloni. Xudoyorxon davrida diploqlarning kuchayishi va Musulmonqul faoliyati. Qipchoqlar qirg'ini. Rossiyaning Qo'qon xonligiga hujumlari arafasida Qo'qon xonligining siyosiy ahvoli.

Qo'qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Qo'qon xonligining davlat boshqaruv tizimi va ma'muriy tuzilishi. Ijtimoiy tabaqalar. Harbiy-ma'muriy amaldorlar. Iqtisodiy hayot: er-mulk munosabatlari, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo. Sug'orish tizimi. Soliqlar va sud tizimi.

Xiva xonligining tashkil topishi va siyosiy hayoti (XVI-XIX asrning

birinchi yarmi).

Xiva xonligiga oid manba va adabiyotlar. Temuriylar inqirozi va Xiva xonligining tashkil topishi. Eron safaviylar bosqini. Shayboniyalar davrida (1512-1770) siyosiy hokimiyat. Xiva - Buxoro - Eron munosabatlari. Xiva - Rossiya munosabatlari. Elbarsxon davrida Eron shohi Nodirshoh xujumi. Xivada siyosiy parokandalik. Qo'ng'iro't Inoqlarining hokimiyatga kelishi (1770-1920). Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik o'rnatilishi. Muhammad Raximxon I davrida Xiva xonligining birlashtirishi. Qoraqalpoqlarning Xivaga bo'ysundirishi. Qoraqalpoqlar qo'zg'aloni. Rossiya bosqini arafasida Xiva xonligining siyosiy ahvoli.

Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Xiva xonligining davlat boshqaruv tizimi. Saroy unvonlari: harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlar. Islohatlar. Kengash (Devon) ta'sis etilishi. Xonlikning ma'muriy tuzilishi va ijtimoiy tizimi. Harbiy, sud va soliq tizimi. Qishloq xo'jaligi: dehqonchilik va chorvachilik. Sug'orish tizimi va kanallar. Said Muhammad Raximxon II (Fetuz) davrida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.

XVI-XIX asrlarda qoraqalpoqlar.

Qoraqalpoqlar yozma manbalarda. Ularning ajdodlari. Qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni (VIII-X asr). Orol atrofi va Kerder viloyati. Qoraqalpoqlarning ko'chishi hamda o'troqlashuvi. O'rta Osiyo manbalarida alohida xalq sifatida tilga olinishi va davlatchiligi boshlanishi (XIV). Qoraqalpoq xalqining tashkil topishi (XV), Qoraqalpoqlarning Surxandaryo va O'rta Zarafshonga ko'chishi (XVI-XVIII). Qoraqalpoqlar xo'jaligi. Shaharlari va ovullari.

XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklaridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Qo'qon xonligi va Buxoro Amirliqi o'rtasidagi munosabatlar.

Buxoro amirligida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Amirlikning davlat boshqaruv tartibi. Buxoro Amirligidagi unvonlar va mansablar. Er egaligi shakllari va xo'jaligi. Soliq siyosati.

Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar. Davlat boshqaruv tartibi. Er egaligi shakllari. Xo'jaligi. Xonlikdagi madaniy hayot.

O'rta Osiyo xonliklarini Rossiya imperiyasini tomonidan bosib olinishi. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi mustamlaka ma'muriy boshqaruv tizimi va mustamlakachilik siyosati.

Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Oqmachi, Pishpek Avliyoota, Turkiston va Chimkent shaharlarini bosib olinishi. Rensburg general-gubernatorligi tarkibida Turkistonviloyatining tashkil etilishi. Rossiya imperiyasi va Buxoro qo'shinlari o'rnatilishi. Zarbuloqda Buxoro qo'shinlarining Samarqand va Kattago'rg'ning istilo qilinishi.

mag'lubiyati Rossiya-Buxoro sult shartnomalari va amirlikni Rossiya vassaliga aylanishi: 1873 yil Xiva xonligiga qarshi yurish. Gandimiyon shartnomasi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka ma'muriy-boshqaruvi siyosatining mohiyati. Turkiston o'lkasini boshqarish hususida 1865-1917 yillar oralig'ida qabul qilingan Nizomlar va ularning o'lkada mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi o'rni.

XIX asrning 70-90 yillarida Turkiston o'lkasida xalq harakatlari.

